

MUSIQA TA'LIMIDA XONANDALIK MAHORATINI SHAKLLATIRISH**O.Tilloxojayev****Qo'qon davlat universiteti Musiqa nazariyasi kafedrası o'qituvchisi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21219989>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada musiqa ta'limi tizimida xonandalik mahoratini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xonandalik mahoratini rivojlantirishda vokal texnikasi, nafasni boshqarish, ovoz apparatini to'g'ri ishlatish, badiiy talqin, sahna madaniyati hamda pedagogik yondashuvlarning o'рни ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak xonandalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, xonandalik, vokal san'ati, vokal texnikasi, nafas mashqlari, ijrochilik mahorati, sahna madaniyati, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya.

Abstract

This article covers the theoretical and practical foundations of the formation of singing skills in the music education system. The role of vocal technique, breath control, proper use of the vocal apparatus, artistic interpretation, stage culture, and pedagogical approaches in the development of singing skills is scientifically analyzed. Also, ways to develop the professional competencies of future singers based on modern educational technologies are described.

Keywords: music education, singing, vocal art, vocal technique, breathing exercises, performance skills, stage culture, pedagogical technologies, competence.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования вокальных навыков в системе музыкального образования. Научно анализируется роль вокальной техники, контроля дыхания, правильного использования голосового аппарата, художественной интерпретации, сценической культуры и педагогических подходов в развитии вокальных навыков. Также описываются пути развития профессиональных компетенций будущих певцов на основе современных образовательных технологий.

Ключевые слова: музыкальное образование, пение, вокальное искусство, вокальная техника, дыхательные упражнения, исполнительские навыки, сценическая культура, педагогические технологии, компетенция.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, yosh avlodni milliy hamda jahon musiqa merosi ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Musiqa ta'limi tizimida xonandalik san'atini mukammal egallagan mutaxassislarini tayyorlash dolzarb vazifalardan sanaladi. Xonandalik nafaqat tabiiy iste'dodga, balki muntazam mashg'ulot, ilmiy asoslangan metodika va pedagogik mahoratga ham tayanadi.

Musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda professional vokal ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shu bois xonandalik mahoratini shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi zarur.

Xonandalik mahorati musiqa ijrochiligining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u nafaqat tabiiy ovoz imkoniyatlariga, balki vokal texnikasi, musiqiy tafakkur, badiiy talqin,

emotsional ifoda va sahna madaniyatining o'zaro uyg'un rivojlanishiga asoslanadi. Zamonaviy musiqa pedagogikasida xonandalik mahorati shaxsning kasbiy kompetensiyasi sifatida talqin qilinadi. U ijrochining vokal imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi, musiqiy asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazishi hamda sahnada erkin va ishonchli ijro etish qobiliyatini ifodalaydi.

Xonandalik mahoratini shakllantirish murakkab va uzluksiz pedagogik jarayon bo'lib, u nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlarning uzviy uyg'unligini talab qiladi. Ushbu jarayonda talabning fiziologik xususiyatlari, ovoz apparatining rivojlanish darajasi, musiqiy qobiliyati, psixologik tayyorgarligi va ijodiy salohiyati alohida e'tiborga olinadi. Har bir xonandaning ovoz diapazoni, temбри va ijro uslubi individual bo'lgani sababli vokal mashg'ulotlari ham individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Xonandalik mahoratining eng muhim tarkibiy elementi ovoz apparatini to'g'ri ishlatish hisoblanadi. Ovoz hosil bo'lish jarayonida nafas olish organlari, hiqildoq, ovoz paychalari, rezonator bo'shliqlari hamda artikulyatsion apparat yagona fiziologik tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizimning to'g'ri ishlashi ovozning tabiiyligi, jarangdorligi va uzoq vaqt davomida sog'lom saqlanishini ta'minlaydi. Ovoz apparatidan noto'g'ri foydalanish esa ovozning charchashi, tembrning o'zgarishi yoki turli funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Professional xonandalikning asosiy omillaridan yana biri diafragmal nafas olishni mukammal egallashdir. Nafas ovozning tayanchi bo'lib, uning to'g'ri boshqarilishi tovushning kuchi, davomiyligi, barqarorligi va ifodaliligini belgilaydi. Diafragma yordamida nafas olish usuli ovozning tabiiy chiqishi, uzun musiqiy jumalarni erkin kuylash hamda yuqori va past registrlarda bir xil sifatni saqlash imkonini beradi. Shu sababli vokal mashg'ulotlarining dastlabki bosqichlaridayoq nafasni boshqarishga oid maxsus mashqlar muntazam ravishda bajarilishi zarur.

Xonandalik mahoratining muhim ko'rsatkichlaridan biri intonatsion aniqlikdir. Intonatsiya musiqiy tovushlarning balandligini mutlaq aniqlik bilan ijro etish qobiliyatini anglatadi. Sof intonatsiya musiqiy eshituv, diqqat, muntazam mashq va ijrochilik tajribasi asosida shakllanadi. Intonatsion aniqlikning rivojlanganligi xonandaning ansamblda yoki xor tarkibida uyg'un kuylashi hamda yakkaxon ijroda asarning badiiy qiymatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Diksiya va artikulyatsiya ham vokal ijrochiligining ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Qo'shiq matnining har bir so'zi tinglovchiga ravon, aniq va mazmunli yetib borishi ijroning badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuz qilinishi, lab, til va jag' mushaklarining erkin harakati artikulyatsiya apparatining rivojlanganligini ko'rsatadi. Diksiya ustida muntazam ishlash nafaqat nutq ravonligini, balki ovozning jarangdorligi va tembr sifatini ham yaxshilaydi.

Tembr sifati xonandaning individual ijrochilik uslubini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Har bir insonning ovozi o'ziga xos tembrga ega bo'lib, uni to'g'ri rivojlantirish va tabiiyligini saqlash vokal pedagogikasining asosiy vazifalaridan biridir. Rezonatorlardan oqilona foydalanish, nafasni to'g'ri taqsimlash hamda ovoz apparatini zo'riqtirmaslik tembrning boy va yoqimli bo'lishiga yordam beradi.

Musiqiy eshituv va ritm hissi ham xonandalik mahoratining ajralmas komponentlaridir. Musiqiy eshituv xonandaga tovush balandligi, interval, akkord va ohanglarni nozik farqlash imkonini beradi. Rivojlangan ritm hissi esa asarning metroritmik tuzilishini aniq his qilish, tempni saqlash va ansambl bilan uyg'un ijro etishga xizmat qiladi. Ushbu qobiliyatlar solfedjio, eshituv mashqlari va muntazam vokal-amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi.

Xonandalik faqat texnik ko'nikmalar bilan cheklanmaydi. Har bir musiqiy asar muayyan g'oya, obraz va hissiy mazmunga ega bo'lib, xonandaning vazifasi ushbu mazmunni tinglovchiga badiiy jihatdan ta'sirchan tarzda yetkazishdan iborat. Buning uchun ijrochi asarning uslubi, janri, tarixiy davri, bastakorning ijodiy uslubi hamda matn mazmunini chuqur tahlil qilishi zarur. Badiiy talqin va obraz yaratish qobiliyati rivojlangan xonanda tinglovchida estetik zavq uyg'otadi va asarning ruhiy ta'sirini kuchaytiradi.

Sahna madaniyati va ijrochilik etikasi ham professional xonandani tavsiflovchi muhim mezonlardan biridir. Sahnada o'zini erkin tutish, auditoriya bilan muloqot o'rnatish, mimika va jestlardan o'rinli foydalanish, tashqi ko'rinish madaniyati hamda ijrochilik odobiga rioya qilish xonandaning umumiy kasbiy saviyasini namoyon etadi. Sahna madaniyati faqat tashqi ko'rinish emas, balki ijro davomida ruhiy barqarorlikni saqlash, hayajonni boshqarish va tinglovchilar bilan emotsional aloqa o'rnatish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Xonandalik mahoratini rivojlantirishda ovoz gigiyenasiga amal qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ovoz apparatini ortiqcha zo'riqtirmaslik, to'g'ri ovqatlanish, yetarli dam olish, shamollash va zararli odatlardan saqlanish, mashg'ulotlarni ilmiy asoslangan tartibda tashkil etish professional faoliyatning uzoq muddat samarali davom etishini ta'minlaydi. Vokal mashqlarining muntazamligi, pedagog nazorati ostida olib borilishi hamda individual yondashuvning qo'llanilishi xonandaning texnik va badiiy mahoratini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xonandalik mahorati fiziologik, psixologik, musiqiy va pedagogik omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllanadigan murakkab kasbiy sifatdir. Uning muvaffaqiyatli rivojlanishi tizimli vokal tayyorgarlik, ilmiy asoslangan pedagogik metodlar, muntazam amaliy mashg'ulotlar hamda ijodiy faoliyatning uzluksiz takomillashuvi bilan bevosita bog'liqdir.

Musika ta'limi tizimida xonandalik mahoratini shakllantirish o'quvchilarning vokal-ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi o'qitishda qo'llaniladigan metodlarning ilmiy asoslanganligi, ularning o'quvchilarning yosh, fiziologik va individual xususiyatlariga mosligi hamda nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'un tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Zamonaviy musika pedagogikasida an'anaviy va innovatsion ta'lim metodlarini integratsiyalash xonandalik mahoratini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xonandalikni o'qitishning asosiy metodlaridan biri vokal mashqlari metodidir. Ushbu metod vokal texnikasining barcha elementlarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarning dastlabki bosqichlarida to'g'ri nafas olish, diafragmani boshqarish, rezonatorlardan samarali foydalanish, tovush hosil qilish mexanizmi hamda artikulyatsion apparatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maxsus vokal mashqlari yordamida ovoz diapazoni kengayadi, registrlar o'rtasidagi o'tishlar silliqlashadi, tovushning jarangdorligi va tembr sifati yaxshilanadi. Shuningdek, mashqlar ovoz apparatini ortiqcha zo'riqishdan saqlash, ovozning chidamliligini oshirish va professional ijrochilik uchun zarur bo'lgan vokal ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xonandalikni rivojlantirishda tinglash va tahlil metodi ham alohida o'rin tutadi. Ushbu metod orqali talabalar mashhur milliy va xorijiy xonandalar ijrosini tinglaydi, ularning vokal texnikasi, musiqiy talqini, sahna madaniyati hamda ijro uslubini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tinglash jarayonida talabalarda musiqiy eshituv rivojlanadi, turli vokal maktablarining o'ziga xos jihatlarini farqlash ko'nikmasi shakllanadi. Tahliliy yondashuv esa o'quvchilarning estetik didini, musiqiy tafakkurini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'z

ijrosini professional ijrochilar namunasi bilan taqqoslash orqali talaba mavjud kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol pedagogik metodlardan foydalanish ham xonandalik mahoratini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Xususan, "master-klass", "ijodiy laboratoriya", "rolga kirish", "portfolio", "muammoli vaziyat", "bahs-munozara", "keys-stadi" kabi metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan, master-klass mashg'ulotlari davomida tajribali xonandalar va professor-o'qituvchilarning amaliy tavsiyalari asosida talabalar o'z ijro mahoratini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Portfolio metodi esa talabaning vokal rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beradi.

Musiqqa ta'limida loyiha metodi ham samarali hisoblanadi. Ushbu metod asosida talabalar ma'lum bir vokal asarni mustaqil o'rganadi, bastakor ijodi, asarning yaratilish tarixi, uslubiy xususiyatlari va badiiy mazmunini tadqiq qiladi. Natijada ular nafaqat vokal ijro ko'nikmalarini, balki ilmiy izlanish, tahlil qilish va taqdimot o'tkazish kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar.

So'nggi yillarda raqamli pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi xonandalikni o'qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqdi. Audio va video yozuvlardan foydalanish, ovozni spektral tahlil qiluvchi dasturlar yordamida tovushning balandligi, tembri, vibratsiyasi va intonatsion aniqligini kuzatish imkoniyati yaratildi. Talabalar o'z ijrolarini yozib, qayta tinglash va tahlil qilish orqali texnik xatolarini tezroq aniqlaydilar hamda ularni mustaqil bartaraf etishga o'rganadilar. Bundan tashqari, onlayn ta'lim platformalari, virtual master-klasslar, videodarslar va elektron o'quv resurslari vokal ta'limining uzluksizligini ta'minlab, mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ansamblda kuylash va sahna amaliyoti metodlari ham xonandalik mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Jamoa bilan ijro etish talabalarda musiqiy eshituvni, ritm hissini, ovozlarni uyg'unlashtirish ko'nikmasini hamda ijrochilik intizomini rivojlantiradi. Sahna amaliyoti esa ijro jarayonida hayajonni boshqarish, tinglovchilar bilan muloqot qilish, mimika va jestlardan o'rinli foydalanish hamda sahna madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Konsertlar, ijodiy uchrashuvlar, festival va tanlovlarda muntazam ishtirok etish talabalarning amaliy tajribasini boyitadi va ularning kasbiy ishonchini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, xonandalik mahoratini shakllantirishda vokal mashqlari, tinglash va tahlil qilish, interfaol ta'lim metodlari, loyiha faoliyati, raqamli texnologiyalar hamda sahna amaliyotidan kompleks foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi bo'lajak xonandalarning texnik, badiiy va ijodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Xonandalik mahoratini shakllantirish faqatgina metodlarni to'g'ri tanlash bilangina emas, balki ta'lim jarayonida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bilan ham uzviy bog'liqdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vokal ta'limining muvaffaqiyati pedagogik muhitning sifati, o'qituvchining kasbiy mahorati, o'quvchining motivatsiyasi va mashg'ulotlarning tizimlilikiga bevosita bog'liq.

Eng muhim pedagogik shartlardan biri individual yondashuvni ta'minlashdir. Har bir talabaning ovoz diapazoni, tembri, fiziologik imkoniyatlari, musiqiy eshituvi va psixologik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli vokal mashg'ulotlari har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirilishi zarur. Individual yondashuv ovoz apparatini ortiqcha zo'riqtirmaslik, tabiiy ovoz imkoniyatlarini to'liq rivojlantirish hamda talabaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Muntazam va izchil tashkil etilgan vokal mashg'ulotlari xonandalik mahoratini rivojlantirishning muhim shartidir. Vokal texnikasi faqat doimiy mashqlar orqali shakllanadi. Mashg'ulotlarning ketma-ketligi, bosqichma-bosqich murakkablashuvi hamda nazariy bilimlarning amaliy ijro bilan uyg'unligi o'quvchilarda mustahkam kasbiy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ta'lim jarayonida psixologik qulay muhit yaratish ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi o'z imkoniyatlarini erkin namoyon eta oladigan, xatolaridan qo'rqmaydigan va pedagog tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan muhitda ijodiy faollik sezilarli darajada ortadi. Ijobiy psixologik muhit sahna qo'rquvini kamaytiradi, ijrochining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va badiiy talqinning erkinligini ta'minlaydi.

Milliy va jahon vokal maktablari tajribalaridan samarali foydalanish ham xonandalik mahoratini shakllantirishning muhim pedagogik omillaridan biridir. O'zbek milliy xonandalik an'analari, maqom san'ati, xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda Italiya belkanto maktabi, rus vokal maktabi va boshqa ilg'or ijrochilik an'alarini o'rganish talabalarning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Turli vokal uslublarini qiyosiy tahlil qilish esa ijrochining kasbiy tafakkurini boyitadi.

Sahna amaliyotini kengaytirish xonandalik ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Ochiq darslar, hisobot konsertlari, festival va tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar hamda amaliy chiqishlar talabalarga haqiqiy sahna tajribasini beradi. Bunday faoliyat jarayonida ular tinglovchilar bilan muloqot qilish, sahna madaniyatiga rioya etish, emotsional holatini boshqarish va ijro davomida o'zini erkin tutish ko'nikmalarini egallaydilar.

Pedagog va talaba o'rtasidagi ijodiy hamkorlik ham xonandalik mahoratini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki maslahatchi, motivator va ijodiy hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim. O'zaro ishonch va hamkorlik muhiti talabaning mustaqil izlanishlarini rag'batlantiradi, uning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi hamda uzluksiz o'z ustida ishlash ehtiyojini shakllantiradi.

Xulosa

Individual yondashuv, tizimli vokal mashg'ulotlari, qulay psixologik muhit, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar, milliy hamda jahon vokal maktablari tajribalaridan foydalanish, sahna amaliyotini kengaytirish va pedagog-talaba hamkorligini mustahkamlash xonandalik mahoratini samarali rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi bo'lajak xonandalarning kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirish, ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish hamda zamonaviy musiqa ta'limi talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Musiqa ta'limida xonandalik mahoratini shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Uning samaradorligi ilmiy asoslangan metodika, individual yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda muntazam amaliy mashg'ulotlarga bevosita bog'liq.

Kelajakdagi musiqa pedagoglari va professional xonandalarni tayyorlashda vokal texnikasi bilan bir qatorda badiiy tafakkur, sahna madaniyati, estetik did va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bu esa raqobatbardosh, yuksak malakali va milliy musiqa an'alarini munosib davom ettira oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
2. Axmedov A. Vokal ijrochiligi asoslari. – Toshkent: Musiqqa, 2018.
3. Yusupov R. Musiqqa pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

4. Abdurashidov K. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Дмитриев Л.Б. Основы вокальной методики. – Москва: Музыка, 2007.
6. Морозов В.П. Искусство резонансного пения. – Москва: Когито-Центр, 2008.
7. Стулова Г.П. Теория и практика работы с детским хором. – Москва: Владос, 2010.
8. Назаров К.Н. Вокал санъати назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2021.